



BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASHDA ISLOMIY BANK XIZMATLARINI JORIY ETISH YO‘LLARI

WAYS OF INTRODUCING ISLAMIC BANKING SERVICES IN THE PROCESS OF BANKING TRANSFORMATION

¹**Voitov Aziz
Botirovich**

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur ilmiy maqolada bank tizimini transformatsiya qilish jarayonida islomiy bank xizmatlarini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Xususan, bank tizimini modernizatsiya qilish sharoitida islom moliyasi instrumentlarining ahamiyati, ularning an'anaviy bank xizmatlaridan farqli jihatlarini hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, banklarni transformatsiyalash jarayonida islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali investitsiya muhitini yaxshilash, moliyaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirish hamda iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada islomiy bank xizmatlarini rivojlantirishning xalqaro tajribasi tahlil qilinib, milliy bank tizimida ushbu xizmatlarni joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Eng. - This scientific article examines the theoretical and practical aspects of introducing Islamic banking services in the process of banking sector transformation. In particular, the importance of Islamic financial instruments in the context of banking system modernization, their distinctive features compared to traditional banking services, and their role in ensuring financial stability are analyzed. The article also explores the opportunities to improve the investment environment, expand the range of financial services, and support the real sector of the economy through the implementation of Islamic financing mechanisms during banking transformation. Furthermore, the international experience of developing Islamic banking services is analyzed, and scientifically grounded proposals and recommendations for introducing these services into the national banking system are developed.

Kalit so'zlar: **Keywords:**

❖ *bank transformatsiyasi, islom moliyasi, islom bankchiligi, islomiy bank xizmatlari, murobaha, mushoraka, muzoraba, ijara, sukuk, moliyaviy barqarorlik, bank innovatsiyalari, investitsiya faoliyati, bank tizimini modernizatsiya qilish*

❖ *banking transformation, Islamic finance, Islamic banking, Islamic banking services, murabaha, musharaka, mudaraba, ijara, sukuk, financial stability, banking innovations, investment activity, banking system modernization.*

Kirish.

Hozirgi kunda jahon moliya tizimida islom bankchiligi muqobil moliyaviy model sifatida jadal rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Global moliya bozorlarida islom banklari va moliya institutlari faoliyati turli shakllarda namoyon bo'lib, ular bank va bank bo'lmagan moliya muassasalari, yirik va kichik hajmdagi institutlar, ixtisoslashgan va diversifikatsiyalashgan moliyaviy tashkilotlar, milliy hamda transmilliy bank tizimlari ko'rinishida faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, zamonaviy islom banklari an'anaviy bank tizimi bilan integratsiyalashgan holda yoki alohida mustaqil moliya institutlari sifatida shakllanib, moliyaviy xizmatlar bozorida o'ziga xos o'rin egallamoqda.

Bugungi kunda ayrim islom banklari faoliyati an'anaviy bank tizimiga o'xshash tarzda tashkil etilgan bo'lsa, ayrimlari esa shariat tamoyillariga qat'iy rioya qilgan holda o'ziga xos moliyaviy xizmatlar modelini shakllantirmoqda. Masalan, ko'plab an'anaviy banklarda tashkil etilgan "islomiy darchalar" orqali mijozlarga shariat tamoyillariga mos moliyaviy xizmatlar taklif etilmoqda. Shu bilan birga, ayrim moliyaviy institutlar islom moliyasining asosiy tamoyillarini to'liq joriy etmasdan, faqatgina marketing vositasi sifatida foydalanayotgan holatlar ham uchrab turadi. Bunday holatlar esa islom bankchiligining asl mohiyatiga putur yetkazishi va ushbu tizimga nisbatan jamoatchilik ishonchining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun islom moliyasi va bankchiligi tizimini rivojlantirishda uning nazariy asoslari, tamoyillari hamda amaliy mexanizmlarini to'g'ri joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Islom moliyasi tizimi foizsiz moliyalashtirish, foyda va zararlarni taqsimlash hamda real aktivlarga asoslangan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish tamoyillariga asoslanadi. Ushbu tizim moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-

quvvatlash va ijtimoiy mas'uliyatli moliyaviy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli so'nggi yillarda ko'plab davlatlar bank tizimini transformatsiyalash jarayonida islom moliyasi instrumentlarini joriy etish orqali moliya sektorining samaradorligini oshirishga intilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham bank tizimini modernizatsiya qilish, moliyaviy xizmatlar bozorini diversifikatsiya qilish hamda xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvni kuchaytirish jarayonida islom moliya institutlari faoliyatini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha zarur huquqiy asoslarni yaratish va ushbu jarayonga Islom taraqqiyot banki hamda boshqa xalqaro moliya institutlari ekspertlarini jalb etish zarurligi alohida ta'kidlab o'tildi [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-765-son Qonunining qabul qilinishi mamlakatimizda islom moliya instrumentlaridan foydalanish tizimini rivojlantirishda muhim huquqiy asoslardan biri bo'ldi. Mazkur huquqiy hujjat moliyaviy xizmatlar bozorida yangi moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish, mikromoliyalashtirish tizimini rivojlantirish hamda muqobil moliyaviy xizmatlarni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Milliy iqtisodiyotimizda islom moliya instrumentlaridan foydalanish va islom moliya institutlari faoliyatini rivojlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda moliya sektorida mavjud muammolarni hal etish, investitsiya jarayonlarini faollashtirish hamda real sektorni qo'llab-quvvatlash uchun muqobil moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtai

nazardan, bank tizimini transformatsiyalash jarayonida islomiy bank xizmatlarini joriy etishning iqtisodiy asoslarini o'rganish, xalqaro tajribani tahlil qilish va milliy bank tizimiga mos mexanizmlarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi.

Jahon moliya tizimida bank faoliyatining ikki asosiy modeli – an'anaviy bank tizimi va islomiy bank tizimi mavjud bo'lib, ularning moliyalashtirish mexanizmlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. An'anaviy bank tizimida moliyalashtirish foizga asoslangan kreditlash orqali amalga oshiriladi va pul daromad keltiruvchi mustaqil iqtisodiy resurs sifatida qaraladi. Bunda qarz mablag'lari bo'yicha foiz to'lovlari loyiha natijasidan qat'i nazar kafolatlangan bo'ladi. Islom bankchiligida esa moliyalashtirish sheriklik va risklarni taqsimlash tamoyillariga asoslanadi. Ya'ni bank mijoz bilan hamkorlik asosida faoliyat yuritib, moliyalashtirilayotgan loyiha natijalariga muvofiq foyda va zararlarni o'zaro bo'lishadi. Bu yondashuv moliyaviy operatsiyalarda ehtiyotkorlikni kuchaytirib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Islom moliyasi va bankchiligi masalalari jahon iqtisodchilari tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, ushbu sohada ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Xalqaro valyuta jamg'armasining sobiq rahbari Kristin Lagard islom moliyasining moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini yuqori baholab, uning asosiy ustunliklaridan biri risklarni taqsimlash mexanizmi ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, islom moliyasi qarzдорlik darajasining ortib ketishini cheklaydi hamda moliyalashtirish jarayonining real aktivlarga bog'langanligi sababli moliyaviy tizimning barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi [1].

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham islom bankchiligining nazariy va amaliy

jihatlarini o'rganilgan. Jumladan, E.T. Qodirov va J.K. Majidov o'z tadqiqotlarida islom banklari faoliyatida sheriklik asosidagi moliyalashtirish mexanizmlari muhim o'rin tutishini ta'kidlaydilar. Biroq amaliyotda islom banklari aktivlar portfelining katta qismi qisqa muddatli savdo bitimlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, bunda banklar asosan murabaha shartnomalari orqali xizmat ko'rsatish ustamalaridan daromad oladilar [2]. Bu holat banklar uchun risklarni kamaytirish hamda likvidlikni ta'minlash nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi.

Islom moliyasi institutlarining global rivojlanish tendensiyalari ham bir qator xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Musaev va Magomedova o'z ilmiy ishlarida globalizatsiya sharoitida islom moliyaviy institutlarining rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilib, ushbu tizim xalqaro moliya bozorlarida muqobil moliyalashtirish modeli sifatida shakllanib borayotganini qayd etganlar [3]. Tadqiqotchilar islom moliyasi institutlari faoliyatining kengayishi moliya bozorlarida diversifikatsiyani kuchaytirishi va investitsiya imkoniyatlarini kengaytirishini ta'kidlaydilar.

Iqtisodchi olim Zaripov esa o'z ilmiy tadqiqotlarida islom moliyasining zamonaviy moliya tizimidagi o'rni va rivojlanish istiqbollari tahlil qilgan. Unga ko'ra, an'anaviy moliya tizimida keng qo'llaniladigan "pulning bahosi" tushunchasi o'rniga islom moliyasida "kapital samaradorligi" konsepsiyasi qo'llaniladi. Bu esa moliyalashtirish jarayonini real iqtisodiy faoliyat bilan uzviy bog'lab, kapitaldan samarali foydalanishga xizmat qiladi [4].

Islom moliyasining nazariy asoslari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda mashhur iqtisodchi olim Rafik Yunus al-Misri alohida o'rin egallaydi. U o'z ilmiy ishlarida islom moliyasi islom iqtisodiy ta'limotiga asoslangan holda shakllanganligini ta'kidlab, uning asosiy xususiyatlari sifatida aktivlarga asoslangan moliyalashtirish, moliyalashtiriladigan faoliyat

turlariga qo'yiladigan cheklovlar hamda kapital va tadbirkorlikning ishlab chiqarish omillari sifatida uzviy bog'liqligini ko'rsatib o'tadi [5].

Umuman olganda, islom moliyasi tizimi shariat tamoyillariga mos keluvchi moliyaviy instrumentlar va moliyaviy munosabatlar majmuasini o'z ichiga oladi. XXI asrda ushbu tizimga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortib bormoqda. Natijada islom moliyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar soni ko'payib, yangi ilmiy yondashuvlar va tahliliy materiallar shakllanmoqda [6].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlarda islom moliyasining ayrim nazariy jihatlarini keng yoritilgan bo'lsa-da, bank tizimini transformatsiyalash jarayonida islomiy bank xizmatlarini joriy etish mexanizmlari yetarli darajada o'rganilmagan. Ayniqsa, milliy bank tizimiga islom moliya instrumentlarini integratsiya qilish, ularning institutsional asoslarini shakllantirish hamda bank faoliyatida qo'llashning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan. Shu sababli O'zbekiston bank tizimini transformatsiyalash jarayonida islomiy bank xizmatlarini joriy etishning iqtisodiy asoslarini chuqur o'rganish va ushbu yo'nalishda ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, guruhlash, qiyosiy taqqoslash, retrospektiv va empirik tahlil usullaridan foydalanildi. Ilmiy abstraksiyalash usuli orqali islom bankchiligi instrumentlarining nazariy asoslari va bank tizimini transformatsiyalash jarayonidagi ahamiyati yoritildi. Qiyosiy tahlil yordamida jahon amaliyotida islomiy bank xizmatlarini joriy etish tajribasi mamlakatimizdagi mavjud tashkiliy-huquqiy asoslar bilan solishtirilib, tegishli ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Islom bankchiligi zamonaviy moliya tizimida muqobil moliyalashtirish modeli sifatida shakllanib, jahon moliya bozorida muhim o'rin egallab bormoqda. Islom bank tizimining shakllanishi o'tgan asrning 1960-yillari boshlariga to'g'ri keladi. Mazkur davrda Misr davlatida 1963-yilda tashkil etilgan birinchi islomiy jamg'arma banki islom bankchiligi rivojlanishining dastlabki bosqichini boshlab berdi. Garchi ushbu bank faoliyati uzoq davom etmagan bo'lsa-da, u keyinchalik islom moliya institutlarini shakllantirish uchun muhim tajriba vazifasini o'tadi.

1970-yillarga kelib islom moliya institutlarini yaratish va rivojlantirish jarayoni sezilarli darajada faollashdi. Xususan, 1974-yilda Islom davlatlari tashkiloti tomonidan shariat tamoyillariga asoslangan iqtisodiy va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish maqsadida davlatlararo moliyaviy institut – Islom taraqqiyot bankini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. 1975-yilda esa Dubay shahrida birinchi tijorat islom banki – Dubai Islamic Bank tashkil etildi. Islom bankchiligining rivojlanishida Saudiya Arabistoni qirollik oilasining vakillari, xususan shahzoda Muhammad Faysal hamda tadbirkor Shayx Saleh Kamel kabi shaxslar muhim rol o'ynagan. Ular tomonidan tashkil etilgan moliyaviy guruhlar islom moliya institutlari rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shgan. 1977-yilda Misr va Sudanda Faysal nomi bilan faoliyat yurituvchi banklar ochildi, 1979-yilda esa Bahrayn davlatida birinchi to'laqonli islom banki tashkil etildi.

Bugungi kunda islom moliyasi global moliya tizimining muhim segmentlaridan biriga aylangan bo'lib, dunyoning ko'plab mamlakatlarida faoliyat yurituvchi islom banklari iqtisodiyotda muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, islom banklari faoliyatining asosiy tamoyillari an'anaviy bank tizimidan tubdan farq qiladi. An'anaviy bank tizimida kreditlash foiz asosida amalga oshirilsa, islom

bankchiligi shariat tamoyillariga asoslangan bo'lib, unda foiz (ribo) asosidagi moliyaviy operatsiyalar taqiqlanadi.

Islom moliyasida "ribo" tushunchasi qarz mablag'laridan foydalanish uchun oldindan belgilangan foiz yoki qat'iy to'lovlarni anglatadi. An'anaviy bank tizimida kredit shartnomalariga muvofiq qarz oluvchi qarz summasi bo'yicha foiz to'lash majburiyatini oladi va ushbu majburiyat moliyalashtirilgan loyiha natijalariga bog'liq bo'lmaydi. Shu sababli ayrim musulmon davlatlarida faoliyat yurituvchi moliyaviy institutlar, shuningdek Islom taraqqiyot banki o'z moliyaviy operatsiyalarida foizga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanmaydi.

Islom moliyasida foizga asoslangan moliyalashtirish taqiqlangan bo'lsa-da, iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish maqsadida sheriklik asosidagi investitsiya va moliyalashtirish bitimlari qo'llaniladi. Mazkur mexanizm islom bankchiligida foyda va zararlarni taqsimlash tamoyiliga asoslangan moliyaviy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Islom bank tizimining asosiy tamoyillarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- ❖ bank omonatlari o'rniga investorlar tomonidan sheriklik asosida kapital qo'yilmalar amalga oshiriladi va bank daromadi investitsiya faoliyatining natijalariga bog'liq bo'ladi;

- ❖ moliyalashtirilayotgan faoliyat shariat qoidalariga zid bo'lmagan iqtisodiy faoliyat turlariga yo'naltiriladi;

- ❖ foiz stavkalari va qat'iy belgilangan kredit to'lovlari mavjud bo'lmaydi;

- ❖ bank va mijoz o'rtasida foyda hamda zararlar loyihaga qo'shilgan kapital ulushiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Mazkur tamoyillar bank tizimida yanada adolatli va barqaror moliyaviy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, islom bankchiligi faoliyatini samarali tashkil etish uchun tegishli infratuzilma, institutsional

tizim hamda normativ-huquqiy baza zarur hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ham islom moliyasi va bankchiligini rivojlantirish bo'yicha muhim tashkiliy va huquqiy choralar ko'rilmogda. Xususan, mamlakatimizda islom bank ishi va moliya tamoyillarini joriy etish bo'yicha maxsus ishchi guruhlar va komissiyalar tashkil etildi.

Hozirgi kunda Islom taraqqiyot banki guruhi tarkibiga kiruvchi Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi (ICD) tomonidan O'zbekistonning bir qator tijorat banklarida islom moliya mahsulotlari va xizmatlarini taklif etuvchi maxsus "islomiy darchalar"ni tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Ushbu mexanizm an'anaviy bank tizimida faoliyat yuritayotgan banklar tarkibida shariat tamoyillariga mos moliyaviy xizmatlarni joriy etish imkonini beradi.

Islomiy darchalar faoliyatini to'liq anglash uchun, avvalo, islom bankchiligining an'anaviy bank tizimidan farqli jihatlarini tushunish muhimdir. Umuman olganda, islom moliyasi moliyalashtirish jarayonida shariat tamoyillariga qat'iy rioya qilinishini talab qiladi. Bunda tomonlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar shariat qoidalariga mos keladigan bitimlar asosida amalga oshiriladi.

Buni oddiy misol orqali tushuntirish mumkin. Masalan, go'sht mahsulotining halolligi hayvon yoki parrandaning islom dini talablariga muvofiq so'yilganligiga bog'liq bo'lganidek, moliyaviy operatsiyalar ham shariat talablariga rioya qilingan holda amalga oshirilsa, ular "halol" yoki "shar'iy" moliyaviy xizmatlar sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli islom moliyasi moliyaviy munosabatlarni nafaqat iqtisodiy, balki axloqiy va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillari asosida tashkil etishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, bank tizimini transformatsiyalash jarayonida islomiy bank xizmatlarini joriy etish moliya sektorini diversifikatsiya qilish, real sektorni qo'llab-

quvvatlash hamda xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvni kuchaytirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Islom taraqqiyot banki (IsDB) guruhi tarkibiga kiruvchi moliyaviy institutlar global miqyosda islom moliya tizimini rivojlantirish, shariat tamoyillariga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarini

joriy etish hamda a'zo mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu institutlar faoliyati bank tizimini transformatsiyalash, moliyaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirish va muqobil moliyalashtirish manbalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

1-jadval

Islom taraqqiyot banki (ISDB) guruhiga kiruvchi moliyaviy institutlar*

Tashkilot	To'liq nomi	Asosiy faoliyati
ITFC	Savdoni Moliyalashtirish bo'yicha Islom Korporatsiyasi	A'zo davlatlar o'rtasida savdo operatsiyalarini moliyalashtirish va savdo aloqalarini rivojlantirish bilan shug'ullanadi.
ISDBI	ITB Instituti (Tadqiqot va Trening Instituti)	Islom moliyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, kadrlar tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini amalga oshiradi.
ICIEC	Investitsiyalar va Eksportni Sug'urtalash Islom Korporatsiyasi	Investitsiyalar va eksport operatsiyalarini siyosiy va tijorat risklaridan sug'urtalash orqali qo'llab-quvvatlaydi.
ICD	Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom Korporatsiyasi	A'zo davlatlarda xususiy sektorni rivojlantirish va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bilan shug'ullanadi.

*ICD (Islom xususiy sektorni rivojlantirish korporatsiyasi) statistik ko'rsatkichlari.

Yuqorida keltirilgan 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Savdoni moliyalashtirish bo'yicha Islom korporatsiyasi (ITFC) a'zo davlatlar o'rtasidagi savdo aloqalarini kengaytirish va eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish orqali xalqaro savdo integratsiyasini kuchaytirishga ko'maklashadi. Islom taraqqiyot banki instituti (ISDBI) esa islom moliyasi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, malakali mutaxassislar tayyorlash hamda moliyaviy xizmatlar bozorida innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Investitsiyalar va eksportni sug'urtalash bo'yicha Islom korporatsiyasi (ICIEC) investitsiya loyihalarini va eksport operatsiyalarini turli siyosiy hamda tijorat risklaridan sug'urtalash orqali investorlar uchun qulay muhit yaratadi. Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi (ICD) esa xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hamda tijorat banklari orqali islom moliya mahsulotlari va xizmatlarini joriy etishga ko'maklashadi.

Mazkur institutlarning faoliyati O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda bank tizimini modernizatsiya qilish, moliyaviy infratuzilmani takomillashtirish hamda banklarni transformatsiyalash jarayonida islomiy bank xizmatlarini joriy etish uchun muhim institutsional va moliyaviy asos yaratadi.

Xususiy tarmoqni rivojlantirish bo'yicha Islom Korporatsiyasi (ICD) mamlakatda islom moliyasining rivojlanishida alohida o'rin egallagan. Shu kunga qadar ushbu tashkilot tomonidan umumiy miqdori 400 million AQSh dollariga teng mablag' mamlakatdagi 18 ta tijorat banklari, 2 ta lizing kompaniyasi orqali 260 dan ortiq kichik va o'rta biznes vakillarini to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish uchun yo'naltirildi va shu orqali 5,000 dan ortiq yangi ish o'rinlari tashkil etilishiga erishildi [7].

Bank tizimini transformatsiyalash jarayonida islomiy bank xizmatlarini joriy etishning muhim mexanizmlaridan biri tijorat banklari tarkibida "islom darchalari"ni tashkil etish hisoblanadi. Islom darchalari an'anaviy banklar faoliyati doirasida shariat

tamoyillariga mos moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish imkonini beruvchi maxsus tuzilma sifatida faoliyat yuritadi. Biroq bunday xizmatlarni samarali tashkil etish uchun qator tashkiliy, institutsional va huquqiy talablar bajarilishi zarur. Avvalo, islom darchasi faoliyatini tashkil etishda bank rahbariyati va xodimlarining mas'uliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bank rahbarlari islom moliyasining asosiy tamoyillari va konsepsiyasini chuqur tushunishi hamda ushbu tizimni joriy etishga nisbatan qat'iy yondashuvga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, islom moliya mahsulotlari bilan ishlovchi xodimlar an'anaviy bank xodimlaridan alohida tayyorlanishi, ular islomiy moliyaviy bitimlar va shariat tamoyillari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari maqsadga muvofiq.

Ikkinchi muhim talab – islom darchasi faoliyati uchun moliyaviy resurslar va hisobvaraqlarning an'anaviy bank operatsiyalaridan alohida yuritilishidir. Islomiy moliyalashtirish operatsiyalari shariat tamoyillariga mos ravishda amalga oshirilishi

sababli, ularning hisob-kitobi va moliyaviy oqimlari an'anaviy bank operatsiyalaridan ajratilgan holda yuritilishi talab etiladi. Bu esa moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini ta'minlash hamda shariat talablariga muvofiqligini nazorat qilish imkonini beradi.

Buning uchun mamlakatimizda islom bankchiligi faoliyatidan foydalanish yo'llari rivojlantirishga to'siq bo'layotgan quyidagi omillarni bartaraf etish lozim:

1. "Islom darchasi" – an'anaviy moliya muassasalari qoshida maxsus bo'linma/filial yoki shoxobcha shaklida tashkil etiladi. Bunday shoxobchalarni tuzishdan asosiy maqsad – an'anaviy bank muassasalari mahsulot va xizmatlaridan emas balki o'z diniy qarashlari tufayli islom moliyasi tamoyillari doirasida faoliyat yurituvchi moliya muassasalari bilan ishlashni afzal ko'ruvchi mijozlar ehtiyojini qondirish va shu orqali bor mijozlarni saqlab qolish, hamda bankka yangi mijozlar jalb qilish. An'anaviy banklarning islom darchalari ochishdan yana bir maqsadi to'laqonli islom banklari bilan raqobat imkoniyatlarini oshirishdir.

2-jadval

Islom darchasiga qo'yiladigan talablar*

Yo'nalish	Talab va izoh
Rahbarlar va xodimlarning mas'uliyati	Bunday tijorat faoliyatini olib boruvchi moliyaviy muassasa rahbarlari ushbu konsepsiyaga to'liq ishonishi va uni to'liq tushunib yetishi kerak. Shariat tamoyillariga rioya qilinishi faoliyatning asosiy sharti hisoblanadi. Islom darchasi bo'yicha mas'ul xodimlar an'anaviy bank xodimlaridan alohida tayyorlanishi va ular islomiy moliya bitimlari asosida ishlashi zarur.
Resurslarning to'liq ajratilganligi	Islom darchasi hisobvaraqlari an'anaviy bank faoliyatidan alohida yuritilishi lozim. Islomiy xizmatlar bo'yicha barcha operatsiyalar an'anaviy bank operatsiyalaridan alohida hisobga olinishi kerak. Bu jarayon maxsus dasturiy ta'minot orqali amalga oshiriladi.
Shariat kengashi (yoki qo'mitasi)	Har bir islom moliya muassasasi mustaqil Shariat kengashiga ega bo'lishi zarur. Ushbu kengash barcha moliyaviy operatsiyalarning shariat talablariga muvofiqligini nazorat qiladi va ularning halol asosda amalga oshirilishini ta'minlaydi.
AAOIFI standartlariga muvofiqlik	Islom moliya muassasalari buxgalteriya hisobi va audit faoliyatini AAOIFI (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions) standartlariga muvofiq yuritishi lozim. Bu standartlar moliyaviy faoliyatning shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

*<https://icd-ps.org> - sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

2. Islomiy banklar mijoz talabi bilan obyektini qurib berishi, asbob-uskunalar, tovar, xomashyolar olib berishi yoki ularni ijaraga berishi mumkin. Moliyalashtirish asosida savdo amaliyoti yotadi. Zamonaviy bank tizimida esa banklarning savdo amaliyotlarini amalga oshirish qonunchilik nuqtayi nazaridan mushkul bo'lib, bunga soliq hamda bank faoliyatiga taalluqli me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'sqinlik qiladi.

Mazkur tashkiliy-huquqiy va institutsional choralarni izchil amalga oshirish natijasida O'zbekiston islom moliyasi va bankchiligi sohasida mintaqada yetakchi mamlakatlardan biriga aylanish imkoniyatiga ega. Bank tizimini transformatsiyalash jarayonida islomiy bank xizmatlarini joriy etish moliyaviy xizmatlar bozorini diversifikatsiya qilish, muqobil moliyalashtirish manbalarini kengaytirish hamda real sektorni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, islomiy moliyaviy xizmatlarni bank tizimiga integratsiya qilish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Mazkur tizimni rivojlantirish orqali mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish hamda xorijiy investorlar uchun jozibador moliyaviy infratuzilmani shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Natijada bank tizimini transformatsiyalash jarayonida islomiy bank xizmatlarini joriy etish nafaqat moliya sektorining barqarorligini oshiradi, balki iqtisodiyotning uzoq muddatli va barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Islom moliyasi bir qator davlatlarda muvaffaqiyatli ishlar qo'lga kiritilgan. O'tgan yillar

davomida «startap» (ya'ni boshlang'ich darajadagi) shaklda rivojlangan islom moliya tizimi bugungi kunga kelib yetarli darajada tajriba orttirdi va mana endi shu orttirilgan tajriba bilan bo'lishish uchun xalqaro miqyosga chiqish vaqti keldi. Islom banklari va butun soha vakillari yangi bozorlarga (ya'ni o'z milliy chegaralaridan tashqariga) dadil chiqib borishi, biznes hamkorlikni va «janub-janub» ko'rinishidagi (ya'ni rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi, masalan, Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) a'zolari o'rtasidagi) xalqaro savdoni ilgari surishi va qo'llab-quvvatlashi, hamda islom bank-moliya tizimini joriy qilayotgan davlatlarda to'laqonli huquqiy/moliyaviy islom infratuzilmasini yaratish bo'yicha mahalliy muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda islom moliya xizmatlari sanoatining keng qamrovli joriy etilishi mamlakat uchun quyidagi imkoniyatlarni ochishga imkon yaratishi mumkin: xorijdan kelayotgan investitsiyalar hajmini oshirish va diversifikatsiyalash; bank tarmog'ida halol va shaffof raqobat muhitini yaratish hamda bank tizimi aktivlarini diversifikatsiyalash imkoniyatini yaratish; aholi va biznes vakillari ixtiyorida bo'lgan bo'sh pul mablag'larining iqtisodiyot rivojlanishida maksimal ishtirokini ta'minlash; mamlakatda kapital bozorini rivojlantirish va diversifikatsiyalash; ko'plab yangi ish o'rinlari yaratish; aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali, moliya bozoridagi faolligini ko'tarish; Islom moliya xizmatlari industriasini rivojlantirish orqali mamlakatda infratuzilmani muvofiqlashtirish va yangilash; yangi moliyaviy muassasalar tashkil qilish; kambag'allikka qarshi kurashish davlat dasturini amalga oshirishga hissa qo'shish; yangi yo'nalishda kadrlar tayyorlash dasturini yaratishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Oliy Majlisga Murojaatnoma, 2020-yil 29-dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

2. Qodirov E.T., Majidov J.K. Xorijiy mamlakatlarda bank ishi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2016-yil. 184 bet.

3. Мусаев Р.А., Магомедова Ю.Д. Тенденции развития исламских финансовых институтов в условиях глобализации в журнале Проблемы теории и практики управления, издательство ООО «Международная Медиа Группа» (Москва), № 11

4. Зарипов И.А. (2016) Исламские финансы как стратегический ориентир развития России. / Zaripov I.A. (2016) Islamic finance as a strategic landmark for the development of Russia. <https://cyberleninka.ru/>.

5. Rafik Yunus al-Misri. Fiqh of Property Relations. Translated from Arabic by D. Adzhi; Editorial board: B. F. Mulyukov et al. – Moscow: Islamic Book, 2014. – 320 p.

6. Haydarov O'A., "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnali. 2022-yil, 1-son, 362–369-betlar.

7. Statistik ko'rsatkichlar Islamic Corporation for the Development of the Private Sector (ICD) rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tahlil qilinib, umumlashtirildi. <https://icd-ps.org/>